

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING NAZARIY ASOSLARI

Alibekova Xosiyat Esanboy qizi

Guliston shahar 18-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17387591>

Anontatsiya. Mazkur maqolada 1-4 sinf ona tili darslarida fe'l mavzusining o'rgatilishi, nazariyasi va e'tiborli juhatlari, asosan bu sinflarda fe'lning qaysi jihatlariga e'tibor qaratilishi masalalari tahlil etilgan bo'lib, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi samarasi va fe'l mavzusini o'rganish yakunida o'quvchilar egallashi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi ham berilgan.

Kalit so'z: so'z turkumi, fe'l, ot, sifat, bo'lishli, bo'lishsiz, kesim, ega, hol, maktab, o'quvchi, o'qituvchi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЛАГОЛЬНОЙ ФРАЗЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье анализируются преподавание, теория и важные аспекты глагола как субъекта на уроках родного языка в 1-4 классах, в основном вопросы того, каким аспектам глагола уделяется внимание на этих уроках, и эффективность развития устной и письменной речи учащихся на уроках родного языка, а также уровень знаний, навыков и квалификаций, которые учащиеся могут приобрести по окончании изучения глагола как субъекта.

Ключевые слова: класс слова, глагол, существительное, прилагательное, причастие, инфинитив, причастие, притяжательный падеж, школа, ученик, учитель.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE VERB PHRASE IN ELEMENTARY GRADES

Abstract. This article analyzes the teaching, theory and important aspects of the verb subject in native language classes in grades 1-4, mainly the issues of which aspects of the verb are paid attention to in these classes, and the effectiveness of the development of students' oral and written speech in native language classes, as well as the level of knowledge, skills and qualifications that students can acquire at the end of studying the verb subject.

Keywords: word class, verb, noun, adjective, participle, infinitive, participle, possessive, case, school, student, teacher.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish faoliyatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.

Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqda.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida o'rin ajratilmoqda. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimini tashkil etish o'qitish jarayonining ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Shubois bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

Ona tili ta'limi darslari jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish masalasi o'tgan asrning 30-50-yillarida A.Sa'diy, S.Dolimovlar tomonidan; 60-yillardankeyin pedagogika fanlari nomzodi Y.Abdullaev, pedagogika fanlari doktori Q.Abdullaeva, professor K.Qosimova, B.Turdiyev, A.G'ulomov, M.Asqarova, S.Matchonov, SH.Yusupova, T.Ziyodova kabi olimlar tomonidan tadqiqqilingan.[2] A.Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozmatavsifberish, S.Dolimov yozma bayon, adabiy ijodiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarnutqiy boyligining ahamiyati bo'yicha metodik tavsiyalarni qaydetganlar.

Q.Abdullaeva "1-sinfda nutq o'stirish" metodik qo'llanmasida o'quvchilarnito'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni mustaqiltashkil etish, didaktik materiallardan, ko'rgazmalilikdan foydalanishusullaribayon etilgan.[5] Tilning lug'at tarkibi o'quvchining nutqiy rivojlanishi atrofda gilar bilan muloqotga kirishishida katta imkoniyatlar yaratadi. Onatili o'quv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki insonuchun umri davomida zarur bo'ladigan til birliklarini amaliyqo'llashko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda fe'l so'z turkumiga oid bilimlarni o'zlashtirishda lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishda avvalambor, lisoniy 10 kompetensiyalar haqida to'xtalib o'tamiz. Shu bois lingvistikkompetensiyata'rifini keltiramiz.

Lingvistik kompetensiya-til sathlari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish) egallashni nazarda tutadi. So'nggi paytlarda lingvistik kompetentsiyani shakllantirishga alohida ahamiyat berildi, chunki u to'g'ri ravishda ijtimoiy faol shaxsning muvaffaqiyatli shakllanishining kafolati sifatida qaralmoqda. Lingvistik kompetentsiyani shakllantirishda matn bilan kompleks ishlashni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. [80] Lisoniy kompetensiya - bu tilda so'zlashuvchilar ega bo'lgan lingvistik bilimlar tizimi.

U til tizimidan muloqotda foydalanish usuli bo'lgan lingvistik ko'rsatkichdan farq qiladi.

Noam Xomskiy bu konsepsiyani o'zining generative grammatikasini ishlab chiqishda kiritgan va u yerda u keng tarqalgan va kompetentlik o'rganilgan yagona til darajasidir.

Xomskiyning fikricha, kompetensiya so'zlovchilarga o'z tilida cheksiz sonli jumlarlar tuzish va tushunish, shuningdek, grammatik gaplarni grammatik bo'lmagan gaplardan farqlash imkonini beradigan ideal til tizimidir. Unga nutq xatolari kabi "Grammatik jihatdan ahamiyatsiz atamalar" ta'sir qilmaydi. Xomskiyning fikriga ko'ra, kompetentsiyani "ishlash" tushunchasiga kiruvchi tildan foydalanishdan mustaqil ravishda o'rganish mumkin, masalan, ona tilida so'zlashuvchilarning introspektsiyasi vagrammatik mulohazalari orqali.

Ko'pgina boshqa tilshunoslar - funksionalistlar, kognitivlingvistlar, psixolingvistlar, sotsiolingvistlar va boshqalar bu farqni rad etib, uni empirik ishni ahamiyatsiz qiladigan tushuncha sifatida tanqidqilib, tildanfoydalanishning ko'plab muhim jihatlarini e'tiborsiz qoldirdilar. Shuningdek, bu tafovut ko'pincha generativistik nazariya doirasida Uilyam Labov ta'biri bilanaytganda, "ishlash noqulay" bo'lgan real ma'lumotlarni istisno qilish uchun qo'llanishi ta'kidlangan. Lisoniy kompetensiyaga turli tadqiqotchilar tomonidanturli davrlarda bir nechta ta'riflar berilgan. A. L. Berdichevskiylingvistik lingvistik va madaniy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni taklifqildi.

Kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari lingvistik va madaniy kompetensiyalardir. Sotsiolingvistik kompetensiya-so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xoxish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistikshakl, ifoda vositalarini tanlash imkonini yaratadi. Lingvistik kompetensiyaba'zanbu atama lingvistik kompetensiyaning sinonimi sifatida ishlatiladi, ammobutushuncha kengroqdir. Bu og'zaki va yozma nutqni - uning qonuniyatlarini, qoidalarini, tuzilishini chuqurroq tushunishni nazarda tutadi. Lingvistik kompetensiya o'quvchi shaxsining kognitiv madaniyatini, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, xotirasini, tasavvurini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini hurmat qilish ko'nikmalarini egallashni ta'minlaydi.[8]

Pragmatik kompetensiya – kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklarpaydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va xokazolar orqali murakkabvaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridano'rinli foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Fe'lni o'rganishda izchillik. 1-sinfda fe'l ustida ishlash. Fe'l ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilamingdiqqati fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi. Fe'l ustida ishlash mashqlarini „Alifbe“dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi.

Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlarbilanto'ldiradilar: Kuzda mevalar nima qiladi?... (pishadi), sabzavotlar nimaqiladi?... (yetiladi), daraxt barglari nima qiladi?... (sarg'ayadi). Bolalar nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ... (o'ynayaptilar), ... (ishlayaptilar).[4]

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan(nima qilyapti?) yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan, o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazishbilan tushuntiriladi.

O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradiganuxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi kabi fe'llarni ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega.

Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatinikeng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordamberadi.[6]

2—3-sinflarda fe'lni o'rganish. Bubosqichning asosiy vazifasi „Fe'l — so'z turkumi" degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma)ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi. Fe'ning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilarning o'zlari bajarayotganish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda „O'qituvchi nimaqildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilarni maquullyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?"kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib boradilar. Masalan, nima qildi? — so'zladi, tushuntirdi; nima qildilar? — tingladilar, yozdilar; nima qilyapti?— tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti; nima qilyaptilar? – javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? — tekshiradi, ko'radi; nimaqiladilar?—ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar. Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi.

Fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. [7] Dasturga ko'ra 3-sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi.

Suhbat uchun „O'qish darsida kimlaro'qidi? Shokir ham o'qidimi? Kim so'zladi? Alisher so'zladimi? Barnokutubxonagaboradimi? Abdulla-chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?" kabi savollardan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydilar va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar.

4-sinfda fe'lni o'rganish, Bu sinfda fe'lni o'rganishning vazifalari quyidagilar:

1. Fe'ning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamonqo'shimchasibilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmahosilqilish; fe'ning leksik ma'nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasihaqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe'ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shumaqsaddanutqda ma'nodosh va zid ma'noli fe'llardan matn bilan bog'liqholdao'zvako'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan tanishtirib borishgaqaratilganmashqlardan foydalanish.

3. Zamon qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishi haqidagi ko'nikmani hosilqilish.

4. Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchaniberish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Fe'l zamoni shakliningmohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya'ni ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda, undan oldin va keyin bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi.

O'quvchilar o'zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarini kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama qiladilar. Xuddi shunga o'xshash kuzatishni tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar yuzasidan ham o'tkazadilar. Bu mavzu bahorda o'tiladi.

Shuning uchun o'quvchilar kuzatish asosida, Bahor keldi. O'rik, olcha gulladi. Gullar ochilyapti. Endi gilospishadi.

Bahordan so'ng yoz keladi. Yozda bolalar oromgohga bormoqchi "kabi gaplar tuzadilar.

Gapdagi fe'llarga so'roq berib, ish-harakatning bajarilish payti, ya'ni ish-harakat bajarilayotganini (nima qilyapti? — o'qiyapti, ochilyapti), oldin bajarilganini (nima qildi? — o'qidi, keldi, gulladi) va keyin bajarilishi (nima qilmoqchi? — yodlamoqchi, bormoqchi) aniqlanadi.

Aniq kuzatish asosida yig'ilgan bu leksik materiallar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi:

1. Fe'llar zamon bilan o'zgaradi. Fe'l uch zamonni bildiradi: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe'llari nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O'tgan zamon fe'li nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning oldin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe'li nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan savoldan bilib boladilar.

So'roqdan uning leksik ma'nosi ham bilinib turadi. Fe'ining zamon shaklini yasash va bilib olish uchun o'quvchilarni so'roqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun avval jamoaviy ravishda ishlanadi va o'quvchilar e'tibori so'roq bilan fe'l zamonining bog'lanishini aniqlashga qaratiladi.

Zamon shaklini hosil qilish uchun fe'lning I shaxs birlik shakli asos qilib olinadi (Boshlang'ich sinflarda fe'lning bosh shakli o'rganilmaydi). Fe'lga so'roq berish bilan fe'l zamoni hosil qilinadi. Bir fe'ldan uch zamonni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe'lining zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun „Fe'l“ mavzusini o'rganish jarayonida fe'lni zamon qo'shimchasi bilan o'zgartirish mashqi muntazam o'tkazib boriladi.

O'quvchilarni fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe'l zamonini aniqlash va biror fe'l shaklidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe'l zamonini o'zgartirish, fe'llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi. [7]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalar vositasida tashkil etish: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2004. – 160b.
2. Anorqulova Y. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida o'zbek tili orqalimilliylikni shakllantirish: Magist.dissert.- Toshkent: 2021. – 100 b.
3. Asqarova M. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 97 b.
4. Ashrapova T., Odilova M., Boshlang'ich sinflarda onatili o'qitish metodikasi, - T.: O'qituvchi, 1984.

5. Kenjaeva M.A. Ona tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati \Fanlarni o'qitishda innovatsion metodikalar. Respublika masofaviy ilmiy seminar materiallari. – Toshkent-Samarqand. 2020. – B. 44
6. Matchonov S. va bosh. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. T., 2013. 240b.
7. Matjonov S., G'ulomova H., Dolimov Z. 3-4-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent, 2007. 192 bet
8. Matjonov S., G'ulomova H., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun. Toshkent, 2007. 272 bet.